

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar

Raqamlar:

2018 yil yanvar oyida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - **676,4 mlrd. so`m**

Ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarida:

Yirik korxonalar ulushi – **23,4 %**


Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi – **16,7 %**

Yakka tartibdagisi tadbirkorlarning ulushi – **59,9 %**

2018 yil yanvar oyida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 676,4 mlrd. so`nni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 104,2 % ga o`sdi.

Eng yuqori xizmatlar hajmi savdo xizmatlari 211,7 mlrd. so`m (jami xizmatlarning 31,3 %), transport xizmatlari 192,0 mlrd.so`m (28,4 %), moliyaviy xizmatlar 63,8 mlrd.so`m (9,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 46,5 mlrd.so`m (6,9 %), shaxsiy xizmatllar 29,4 mlrd. so`m (4,4 %) ga to'g'ri keldi.

2017-2018 yillar yanvar oylarida ayrim xizmat turlari hajmi, mlrd. so`mda






Xizmatlar hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan, kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lif xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanloving kengayishi shular jumlasidandir.

2018 yilning yanvar oyida xizmatlar tarkibi, % da

- aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
- moliyaviy xizmatlar
- transport xizmatlari
- yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- savdo xizmatlari
- ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar
- ta'lif sohasidagi xizmatlar
- sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar
- ijara va prokat xizmatlari
- kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- shaxsiy xizmatlar
- me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar
- boshqa xizmatlar




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 31,3 %), transport xizmatlari (28,4 %), moliyaviy xizmatlar (9,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Eng kam ulush sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,4 %) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,9 %) ida qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2017 yilning yanvar oyida alohida xizmat turlarining ulushi: savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 33,0 %), transport xizmatlari (19,7 %), moliyaviy xizmatlar (10,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,4 %), shaxsiy xizmatlar (5,3 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

2018 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish

	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz hisobida</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami – xizmatlar	676,4	104,2	100,0
<i>jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	46,5	121,1	6,9
moliyaviy xizmatlar	63,8	114,6	9,5
transport xizmatlari	192,0	104,6	28,4
<i>shu jumladan:</i>			
avtotransport xizmatlari	177,7	100,6	26,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari	16,5	102,6	2,4
savdo xizmatlari	211,7	97,6	31,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	19,8	101,8	2,9
ta'lif sohasidagi xizmatlar	18,8	99,4	2,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9,6	110,5	1,4
ijara va prokat xizmatlari	25,2	103,9	3,7
kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	20,4	102,8	3,0
shaxsiy xizmatlar	29,7	102,3	4,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	6,0	144,3	0,9
boshqa xizmatlar	16,4	105,6	2,4

2018 yil yanvar oyida alohida xizmat turlarining o'sish sur'ati, % da




Hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha – 144,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha – 121,1 %, moliyaviy xizmatlar bo'yicha - 114,6 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha – 110,5 %, transport xizmatlari 104,6 %, ga erishildi.

Ma'lumot uchun: 2017 yilning yanvar oyida alohida xizmat turlarining o'sish sur'ati: moliyaviy xizmatlari - 147,6 %, sog'liqni saqlash xizmatlari – 114,0 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar – 111,4 %, transport xizmatlari – 111,2 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 111,1 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 110,7 %; bo'lgan.

**2018 yil yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ishlab chiqarish hajmi,
ming so`mda**



**183,5 ming
so'm**



**o'tgan yilga
nisbatan o'sish
sur'ati 102,3 %**

Viloyat statistika boshqarmasi Xizmatlar
sohasi statistikasi bo'limi
Mas`ul: A.Abdullayev
(71) 230-85-35